

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**TANGIROVA GULCHEXRA NASRIDINOVNA**

**SOYANING INTRODUKSIYA QILINGAN SHAKLLARI ASOSIDA OQSIL  
MIQDORI VA HOSILDORLIGI YUQORI BO‘LGAN YANGI NAVINI  
YARATISH**

**06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по  
сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the abstract of doctoral (DSc) on agricultural sciences dissertation**

**Tangirova Gulchexra Nasridinovna**

Soyaning introduksiya qilingan shakllari asosida oqsil miqdori va hosildorligi yuqori bo‘lgan yangi navini yaratish.....3

**Тангирова Гулчехра Насридиновна**

Создание нового сорта сои на основе интродуктивных форм с высоким содержанием белка и урожайности.....27

**Tangirova Gulchekhra Nasridinovna**

Creation of a new soybean variety based on introductory forms with a high protein content and productivity.....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**TANGIROVA GULCHEXRA NASRIDINOVNA**

**SOYANING INTRODUKSIYA QILINGAN SHAKLLARI ASOSIDA OQSIL  
MIQDORI VA HOSILDORLIGI YUQORI BO‘LGAN YANGI NAVINI  
YARATISH**

**06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Qx237 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Xolmurodova Go'zal Ro'ziyevna**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Amanova Maxfurat Eshmuradovna**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

**Nabiyev Saidg'ani Muxtorovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Jo'rayev Diyorbek Turdiqulovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti**

Fan doktori (DSc) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning «14» 09 2024 yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy, Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-00; E-mail: [tuag\\_info@edu.uz](mailto:tuag_info@edu.uz). Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~No 551637~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» avgust da tarqatildi.

(2024 yil «29» 08 dagi 4- raqamli reyestr bayonnomasi.)



**U.Norqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

**A.A.Qurbonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

**M.S.Raxmankulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda o‘simlik oqsiliga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi tufayli dukkakli ekinlar maydoni yildan yilga kengayib bormoqda. Soya dukkakli ekinlar orasida don tarkibida eng ko‘p oqsil saqlovchi o‘simlik bo‘lib, ekin maydoni kattaligi bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha jami 357 mln tonna soya doni yetishtirilib, uning 156 mln. tonnasi eksport qilinmoqda. Yetishtirilgan yalpi hosilning qariyb 90 foizi 5 ta mamlakatga, ya‘ni Braziliya (126,0 mln. t), AQSH (124,0 mln. t) Argentina (38,0 mln. t), Xitoy (15,0 mln. t) va Hindiston (14,0 mln. t) ga to‘g‘ri keladiyotgan bo‘lsa, soya doni eksportida ham AQSH, Braziliya, Argentina yetakchilik qilmoqda<sup>1</sup>. Mazkur mamlakatlarda ilg‘or soyachilikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida turli noqulay iqlim sharoitlariga bardoshli, serhosil, oqsil va moy miqdori yuqori, erta va o‘rtapishar soya navlarini yaratishga e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda ham soya ekini ommalashmoqda, jumladan 2023-yilda 102,7 ming gektar maydonda ekilib, 142,7 ming t soya doni yetishtirildi. Istiqbolda soya ekinining ahamiyati yanada oshib borishi sababli, bugungi kunda soya seleksiyasi bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Jahonning soyachilik ilg‘or rivojlangan yetakchi mamlakatlarida soya yetishtirishda yuqori natijalarga erishishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, serhosil, kasallik va zararkundalarga chidamli, oqsil va moy miqdori yuqori, ertapishar hamda mexanizatsiyaga moslashgan yangi soya navlarini yaratish va bunda genetika, seleksiya hamda biotexnologiyaning zamomaviy uslublaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, seleksion tadqiqotlarda klaster, elektroforez kabi tahlil qilish usullarini qo‘llash ancha tezkor va samarali hisoblanadi. Bugungi kunda turli mintaqalardan introduksiya qilingan soya nav namunalariidan foydalanib, don tarkibidagi oqsil va moy miqdorini oshirishga doir genetik-seleksion izlanishlarda zamonaviy seleksiya usullarini qo‘llash orqali plastik navlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda soyaning ekin maydoni yildan-yilga kengayib bormoqda va buning natijasida har bir tuproq-iqlim sharoitlariga mos, hosildorligi va don sifati yuqori navlarga bo‘lgan talab ham ortmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmonida “...mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, soyaning introduksiya qilingan nav namunalari orasidan maqbullarini tanlash va ulardan boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanib, seleksiya usullarini qo‘llagan holda muayyan tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnamaydigan, mexanizatsiyaga yaroqli bo‘lgan navlarni yaratishga qaratilgan izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/soybean-production-by-country>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 2017-yil 14-martdagi “2017–2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2832-son, 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-113-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu mavzu yuzasidan bajariladigan dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.** Soya ekinining yuqori va sifatli hosil beradigan navlarini yaratish, bu navlarni keng ko‘lamda sinash va urug‘chiligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Paulista qishloq xo‘jaligi texnologiyalari agentligi (Braziliya), Texas mexanika va qishloq xo‘jaligi universiteti (AQSH), AQSH qishloq xo‘jaligi departamenti ilmiy tadqiqot markazlari (USDA-ARS), Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari Milliy instituti (Argentina), Sinszyan ekologiya va geografiya instituti (Xitoy), Hindiston qishloq xo‘jaligi universiteti (Hindiston), Qishloq xo‘jaligi va veterinariya instituti (Paragvay), Genetika va o‘simliklar seleksiyasi qishloq xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti (Kanada), Ukraina Agrar Fanlar Akademiyasi (Ukraina), V.S.Pustovoyt nomidagi Rossiya moyli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti (Rossiya), Boliviya agrar instituti (Boliviya), Janubiy Afrika universiteti (Janubiy Afrika), Qishloq xo‘jaligi va veterinariya universiteti (Italiya), Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti, Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Soya ekinida seleksiyon tadqiqotlar olib borish, zamonaviy talablarga mos yangi navlarni yaratish borasida jahonda qator izlanishlar olib borilgan va quyidagi ilmiy natijalar olingan: Rossiya Federatsiyasining V.S.Pustovoyt nomli Butunittifoq moyli ekinlari ilmiy-tadqiqot institutida soyaning kolleksiya nav namunalaridan foydalanib hosildorligi, oqsil va moy miqdori yuqori bo‘lgan seleksion ashyolar yaratilgan; Texas mexanika va qishloq xo‘jaligi universiteti (AQSH) da soya navlarining navdorligi, hosildorligi, mexanizatsiyaga yaroqliligi o‘rganilgan; Qozog‘iston dehqonchilik va o‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida soya navlarining hosildorligi va donining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish borasida seleksion tadqiqotlar olib borilgan; Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti (O‘zbekiston) da soyaning hosildor, dukkagi chatnab ketmaydigan determinant va indeterminant yangi navlari yaratilgan; Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti va Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zbekiston) da soyaning introduksiya qilingan nav namunalarining qimmatli-xo‘jalik belgilari aniqlangan, amaliy seleksiya asosida erta, o‘rta va kechpishar navlari yaratilgan.

Hozirgi kunda soya ekinida seleksiyaning turli usullarini qo‘llagan holda yangi

navlarini yaratish borasida soyaning introduksiya qilingan shakllarida morfo-xo‘jalik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ulardan seleksion jarayonda foydalanish, duragaylar olish, duragaylarda qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi va shakllanishi, morfo-xo‘jalik belgilarining o‘zaro korrelyatsiyasini aniqlash, klaster tahlili, elektroforez usullaridan foydalanish, kolleksiya nav namunalaridan foydalangan holda hosildor, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga yaroqli bo‘lgan soya navlari seleksiyasi uchun boshlang‘ich ashyolar yaratish kabi ustivor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Soya nav namunalarining hosildorligi A.X.Tanakulov, L.V.Omelyanyuk, A.M.Asanov, V.F.Baranov, S.M.Berezovskaya, N.F.Grinev, G.S.Posipanov, T.P.Kobozeva, V.P.Muxin, M.P.Gureyeva, L.A.Buxanova, N.V.Zarenkova, YE.V.Belyayev, Y.V.Demyanenko, X.N.Atabayeva, D.Yormatova, M.F.Abzalov ishlarida, mexanizatsiyaga yaroqliligining pastki dukkakning joylashuv balandligi bilan bog‘liqligi V.F.Baranov, S.M.Berezovskaya, N.F.Grinev, A.Y.Nekrasov, M.V.Trunova, A.V.Kochegura, N.F.Grigorchuk, A.N.Sozonova tadqiqotlarida, soya doni tarkibidagi oqsil va moy miqdori V.V.Tolokonnikov, L.Y.Novikova, I.V.Seferova, A.Y.Nekrasov, I.N.Perchuk, T.V.Shelenga, M.G.Samsonova, M.A.Vishnyakova, O.V.Litvinenko, Y.S.Statsenko, N.Y.Korneva, G.V.Kubankova, G.A.Kodirova, N.Bellaloui, H.A.Bruns, H. K.Abbas, A.Mengistu, D. K.Fisher, K.N.Reddy, W.Song, R.Yang, T.Wu, C.Wu, S.Sun, S.Zhang, T.Han va boshqa xorijiy olimlar ishlarida yoritilgan. Soya belgilarining irsiylanish xususiyatlari, soya germoplazmasidan chatishtirishda foydalanishni YE.S.Butovets, YE.A.Vasina, L.M.Lukyanchuk, M.A.Litarnaya o‘rgangan. Genetik o‘zgaruvchanlikni yaratishning samarali sun‘iy duragaylash usulini qo‘llash orqali ko‘plab boshlang‘ich manbalar yaratish imkoni M.N.Shapturenko, L.V.Xotileva tadqiqotlarida ko‘rsatib berilgan.

Biroq, soya seleksiyasi va urug‘chiligi borasidagi tadqiqotlarda, introduksiya qilingan shakllari va seleksiya usullaridan foydalanib, hosildorligi, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga yaroqli navlarni tanlash va yaratish, seleksion boshlang‘ich ashyolar yaratish borasidagi tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining (2016-2020 yy.), (2021-2025 yy.) rejasiga kiritilgan bo‘lib, Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi kafedrasida tematik rejasining 4-bo‘lim “Soyaning introduksiya qilingan shakllaridan foydalanib, seleksion ashyolar yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** soyaning introduksiya qilingan nav namunalaridan foydalanib, duragaylash usulida hosildor, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan seleksion ashyolar hamda yangi nav yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

soyaning introduksiya qilingan nav namunalarida morfo-xo‘jalik belgilarining

ko'rsatkichlarini aniqlash;

introduksiya qilingan soya nav namunalarining morfologik belgilari bo'yicha klasterlarga ajralishini aniqlash va elektroforez tahlillari bo'yicha baholash;

soyaning introduksiya qilingan nav namunalaridan foydalanib, juft duragaylash usulida olingan  $F_1-F_3$  o'simliklarining irsiylanishi va o'zgaruvchanligiga baho berish;

soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida juft duragaylash usulida olingan oila va yaratilgan tizmalarini qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha barqarorlashuvini meyoriga yetkazish;

soyaning hosildorligi, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan yangi tizmalarining original urug'larini ko'paytirish;

tarkibida oqsil va moy miqdori hamda qimmatli xo'jalik belgilari yuqori bo'lgan yangi yaratilgan soya navini davlat nav sinoviga topshirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida introduksiya qilingan Koreya seleksiyasiga mansub nav namunalar -  $CH_{27}(-266)$ ,  $CH_{28}(-268)$ ,  $CH_3(-008)$ ,  $CH_7(-014)$ ,  $CH_{11}(-018)$ ,  $CH_{30}(-969)$ , US-25(-622), US-14(-382), US-44 (-641), US-80 (-699), US-82(-701), K09(339), KO20, KO3(-214), KO21(RR-1), KO18 hamda ularni chatishtirish orqali olingan duragaylari, oilalari, tizmalaridan, Krasnodar seleksiyasiga mansub nav namunalar - Avanta, Arleta, Sparta, Seleкта 201, Seleкта 302, andoza nav sifatida O'zbekiston seleksiyasiga mansub Uzbekskaaya 2 navidan foydalanildi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida olingan  $F_1-F_3$  o'simliklarni qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi va o'zgaruvchanlik darajasi, korrelyativ bog'liqlik, oila va tizmalarda shakllanish xususiyatlarining tahlillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish sinovi tajribalarini qo'yish, fenologik kuzatish hamda biometrik o'lchashlar o'tkazish «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Методические указания по изучению коллекции зерновых бобовых культур» qo'llanmalari asosida, dominantlik koeffitsiyentini (hp) aniqlash S.Wright formulasi yordamida, irsiylanishni ( $h^2$ ) aniqlash A.Allard formulalari yordamida, soya nav namunalarini klasterlarga ajratish Rstudio kompyuter dasturi asosida, iqtisodiy ko'rsatkichlar V.N.Poloziy uslubida, tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Janubiy Koreya va Rossiyaning Krasnodar o'lkasidan introduksiya qilingan soya nav namunalari seleksion baholangan;

introduksiya qilingan soya nav namunalarini morfologik belgilar bo'yicha klasterlarga ajralishi va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha elektroforez tahlillari asosida baholangan;

introduksiya qilingan soya nav namunalari asosida juft duragaylash usulida olingan  $F_1-F_3$  o'simliklarda hosildorlik elementlarining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi aniqlangan;

soya duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi, o'zgaruvchanligi va yuqori avlodlarda shakllanish qonuniyatlari ilmiy asoslangan;

yuqori seleksion qiymatga ega bo'lgan ashyolarda belgilarining shakllanishini tahlil qilish va samarali tanlovlar natijasida soyaning barqaror genotipli T-2, T-4 va T-5 tizmalari yaratilgan;

soyaning hosildor, tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan yangi TDAU-5 navi yaratilgan va davlat nav sinoviga topshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

soyaning introduksiya qilingan nav namunalaridan olingan duragaylar asosida hosildorligi 30,4-35,4 s/ga, oqsil miqdori 41,2-41,8 % va moy miqdori 21,4-22,7 %, mexanizatsiyaga yaroqlilik bo'yicha ustun bo'lgan oilalar ajratib olingan va tizmalar yaratilgan;

yaratilgan yangi oila va tizmalar xo'jalik uchun qimmatli belgilarining yuqori majmuasi bo'yicha boshlang'ich ashyo sifatida amaliy seleksiya jarayoniga tavsiya etilgan;

juft duragaylash asosida qimmatli xo'jalik belgilarining yuqori majmuasiga ega bo'lgan soyaning yangi TDAU-5 navi yaratilgan va Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga topshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'tkazilgan ko'p yillik dala va laboratoriya tajribalarining umum qabul qilingan, zamonaviy uslublardan foydalangan holda olib borilganligi va aprobatsiya komissiyalari tomonidan yuqori baholanganligi, olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi, tadqiqotlar natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, soyaning yangi TDAU-5 navi yaratilganligi hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk marotaba introduksiya qilingan shakllardan foydalanib, sintetik seleksiya usulini qo'llagan holda genetik jihatdan boyitilgan yangi seleksion ashyolar yaratilganligi, kolleksiya nav namunalari orasidan hosildor, oqsil va moy miqdori yuqori, mexanizatsiyaga moslashganligi bo'yicha yuqori genotipga ega bo'lgan oilalar ajratib olinganligi, klaster va elektroforez usullari bo'yicha tahlillar o'tkazilganligi, yaratilgan tizmalarda qimmatli xo'jalik belgilarining shakllanishi hamda yaratilgan yangi soya navida barqarorlashuv qonuniyatlari aniqlanganligi hamda ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati soyani yuqori qimmatli-xo'jalik belgilarining majmui bo'yicha ajratib, yangi yaratilgan tizmalar olinganligi va seleksiya jarayoniga tadbiiq etilganligi, samarali tanlovlar natijasida soyaning barqaror genotipli, yuqori seleksion qiymatga ega bo'lgan T-5, T-4 va T-2 tizmalari yaratilganligi, hosildor, tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bo'lgan yangi TDAU-5 navi yaratilib, Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga topshirilganligi bilan baholanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Soyaning introduksiya qilingan shakllari asosida oqsil miqdori va hosildorligi yuqori bo‘lgan yangi navini yaratish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

qishloq xo‘jaligida qimmatli-xo‘jalik belgilarning yuqori majmuasiga ega va aksariyat belgilar bo‘yicha ishlab chiqarishda ekilayotgan soya navlaridan ustun bo‘lgan TDAU-5 navi yaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, soya navlari genofondi don hosildorligi 38,1 s/ga ni, vegetatsiya davri 119-120 kunning tashkil etishi, pastki dukkaklar joylashuvi 14,0-15,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgan, oqsil miqdori 41,8 %, moy miqdori 22,9 %, 1000 dona don vazni 160-200 g, dukkaklarining 70-80 % i 4 ta urug‘li bo‘lgan yangi nav bilan boyitilgan;

Janubiy Koreyadan introduksiya qilingan nav namunalari asosida sintetik seleksiya usulida T-2 va T-4 tizmalari yaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yaratilgan T-2 tizmasining maksimal don hosildorligi 33,1 s/ga, vegetatsiya davri 112-114 kun, pastki dukkaklar joylashish balandligi 13-14,0 sm, oqsil miqdori 41,2 %, moy miqdori 21,4 %, 1000 dona don vazni 150-160 grammga teng bo‘lgan bo‘lsa, T-4 tizmasining maksimal don hosildorligi 30,4 s/ga, vegetatsiya davri 115-116 kun, oqsil miqdori 41,3 %, moy miqdori 21,6 %, 1000 dona don vazni 160-170 grammni tashkil etib, pastki dukkaklarning joylashish balandligi 15,0-16,0 sm bo‘lishi mexanizatsiyaga moslashishi va dukkaklari chatnab ketmasligini ta‘minlagan;

soyaning yangi TDAU-5 navi Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining 0,4 gektar tajriba maydonida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, andoza “Uzbekskaya 2” navi (30,1 s/ga) dan 5,9 s/ga yuqori hosil olingan;

soyaning yangi TDAU-5 navi, T-2 va T-4 tizmalari Jizzax viloyati Paxtakor tumani Navbahor FXXU hududidagi “Paxtakor tumani elita urug‘chilik” MCHJda 2022-yil 0,4 ga maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu nav va tizmalarning hosildorligi yuqoriligi va mexanizatsiyaga yaroqliligi qayd etilgan;

soyaning yangi TDAU-5 navi, T-2 va T-4 tizmalari Andijon viloyati Asaka tumani fermer xo‘jaligida 0,3 ga maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hosildorligi tegishli ravishda 33,7, 30,3 va 29,1 s/ga bo‘lib, TDAU-5 navida 45,5 %, T-2 tizmasida 30,8 %, T-4 tizmasida 25,7 % rentabellikka erishilgan;

soyaning TDAU-5 navi, T-2 va T-4 tizmalari 2022 yilda Andijon viloyati Izboskan tumani fermer xo‘jaligida 0,4 ga maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu nav va tizmalarning hosildorligi tegishlicha 34,1, 31,4 va 30,3 s/ga ni, rentabellik darajasi TDAU-5 navida 47,3 %, T-2 tizmasida 35,6 %, T-4 tizmasida 30,8 % ni tashkil etgan;

soyaning yangi TDAU-5 navi va T-2, T-4 tizmalari 2021-2022 yillarda kompleks qimmatli-xo‘jalik belgilarining majmui bo‘yicha boshlang‘ich ashyo sifatida Toshkent viloyati O‘rta-Chirchiq tumani Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonlarida va Jizzax viloyati Paxtakor tumani Navbahor FXXU hududidagi “Paxtakor tumani elita urug‘chilik” MCHJda, 2021-2022 yillarda Andijon viloyati Asaka va Izboskan tumanlari fermer xo‘jaliklarida jami 3-4 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu nav va tizmalardan yuqori va sifatli hosil olishga erishilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga soyaning yangi TDAU-5 navi taqdim qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi №07/34-06/889-son ma‘lumotnomasi). Natijada, soyaning TDAU-5 navi hamda T-2 va T-4 tizmalarining Davlat nav sinovini tashkil etish hamda ekin maydonlarini kengaytirish uchun yetarli miqdorda original urug‘liklari tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala va laboratoriya tajribalari har yili Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan, tadqiqot o‘tkazilgan yillar bo‘yicha yozilgan yillik hisobotlar universitetning uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmetlari tariflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan, izlanishlarning amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Soyaning xalq xo‘jaligi va seleksiyadagi ahamiyati, undan foydalanish istiqbollari hamda bugungi kungacha erishilgan yutuqlar”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining soyaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va undan foydalanish

istiqbollari, soya seleksiyasining ahamiyati, bugungi kungacha erishilgan yutuqlar va ularning tahlili bo'yicha ma'lumotlar sharhi keltirilgan. O'zbekiston, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Avstraliya va AQSHning soya bo'yicha tadqiqotlar olib borgan seleksioner olimlarning ma'lumotlariga tayangan holda, soyaning xalq xo'jaligi va seleksiyadagi ahamiyatiga ko'ra, bugungi kunda soyaning introduksiya qilingan shakllari asosida hosildorligi va oqsil miqdori yuqori bo'lgan soyaning yangi navlarini yaratish, uning urug'chiligini keng tashkil etish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotlarimiz sintetik seleksiya usuli asosida seleksion ashyolar va yangi navlar yaratishga qaratilganligi haqida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning **“Tajribalar o'tkazilgan joy, sharoiti, manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan joy, uning sharoitlari va agrotexnikasi, tadqiqot manbai, usullari, seleksion va statistik usullar to'g'risidagi ma'lumotlari bayon etilgan. Qo'llanilgan usulbar ko'plab tajribalarda foydalanilib, o'zini haqiqiylikni isbotlaganligi va tajribalarning barcha o'tkazilgan yillarida agrotexnika tadbirlari barqaror sharoitda bajarilib, aniq ma'lumotlarni olishga asos bo'lganligi yoritilgan. Olingan ma'lumotlar dispersion tahlildan o'tkazilib, variantlar orasidagi farqlar haqiqiy bo'lib, shuning asosida boshqa tahlillar orqali yuqori ko'rsatkichli seleksion materiallar ajratib olinganligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Introduksiya qilingan soya nav namunalariining tadqiqot natijalari va ularning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida introduksiya qilingan soya nav namunalari tahlil qilingan. Janubiy Koreya soya kolleksiyasi nav namunalariida fenologik kuzatuvlar tahliliga ko'ra, Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproq-iqlim sharoitida K09(339), CH<sub>27</sub>(-266) va CH<sub>28</sub> (-268) nav namunalari ertapishar, CH<sub>3</sub> (-008), CH<sub>7</sub>(-014), CH<sub>30</sub>(-969), US-25(-622), KO18 nav namunalari o'rta-ertapishar, CH<sub>11</sub>(-018), US-14(-382), US-44(-641), US-80(-699), US-82(-701), KO20 va KO3(-214), KO21(RR-1) nav namunalari o'rtapishar ekanligi qayd etildi. Krasnodardan introduksiya qilingan soya kolleksiyasi nav namunalariida fenologik kuzatuvlar tahliliga ko'ra, Avanta, Arleta, Sparta va Selekt 201 nav namunalari ertapisharlikni, faqatgina Selekt 302 nav namunasi o'rtapisharlikni namoyon qildi. Ertapishar, o'rta-ertapishar va o'rtapishar nav namunalardan seleksiya jarayonlarida boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish mumkin. Ushbu nav namunalariini asosiy va takroriy ekin sifatida respublikamiz ekin maydonlariga joriy qilish maqsadga muvofiq. Chunki soya tuproq unumdorligini oshiradi, saqlaydi va kelgusi yil ekiladigan ekinlarni ekologik sof azot bilan ta'minlaydi hamda ekologik toza mahsulot olishga erishiladi. Shuningdek, azotli o'g'itlar tejaladi, pirovardida xarajatlar kamayadi. Soya kolleksiyasi nav namunalariining biometrik ko'rsatkichlariga nav xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoiti va agrotexnologik tadbirlarni qo'llash sezilarli ta'sir qildi. Soya kolleksiyasi nav namunalariining vegetatsiya davri davomida bo'yi o'sib, barg va yon shoxlar soni ortib borishi, dukkaklar to'lishib, soni ham oshib borishi kuzatildi.

Introduksiya qilingan soya kolleksiya nav namunalariining biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha ertapishar Selekt 201 va o'rtapishar Selekt 302 nav namunalari tegishli ravishda bo'yining balandligi 80,0-90,0; 130,0-135,0 sm, barglar soni 32,0-36,0 dona, yon shoxlar soni 3,0-4,0 dona va dukkaklar soni 110,0-120,0 donani tashkil etib, ulardan seleksiya jarayonlarida boshlang'ich ashyo

sifatida foydalanish, ular orasidan serhosil soya navlarini tanlash maqsadga muvofiq.

Introduksiya qilingan Janubiy Koreya kolleksiyasi nav namunalari navning biologik xususiyatlariga bog'liq ravishda shakllanadi. Tipik bo'z tuproq-iqlim sharoitida soya kolleksiyasi nav namunalarining morfologik belgilariga ko'ra, dukkak uzunligi ko'rsatkichi bo'yicha KO18, US-25(-622), KO20 va CH<sub>7</sub>(-014) nav namunalari, dukkak eniga ko'ra CH<sub>3</sub>(-008), KO20 nav namunalari, dukkakdagi urug'lar soni 4 donaligi bo'yicha CH<sub>11</sub>(-018) va CH<sub>30</sub> (-969) nav namunalari, dukkagida tuklar soni 1 mm<sup>2</sup> o'lchamda US-25 (-622) nav namunasida 21-62 dona, CH<sub>11</sub> (-018) nav namunasida 29-61 donagacha ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lgan nav namunalar ajratib olindi va ulardan belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion jarayonlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Introduksiya qilingan nav namunalari orasidan urug'ning morfologik belgilariga ko'ra, urug' uzunligi va eni, urug' kertimi (rubchik) ning rangi va uzunligi, urug'lar qobig'idagi dog'lari bo'yicha nav namunalar ajratib olindi: urug' uzunligi bo'yicha CH<sub>7</sub>(-014) (0,8-1,0 sm), US-14(-382) (0,9-1,0 sm), Arleta (0,9-1,1 sm), Sparta (1,1-1,3 sm) nav namunalari; urug' eni bo'yicha Arleta, Sparta (0,7-0,8 sm), CH<sub>7</sub>(-014), US-14(-382), (0,8-0,9 sm) nav namunalari; kertimining rangi bo'yicha CH<sub>27</sub>(-266), CH<sub>3</sub>(-008), CH<sub>7</sub>(-014), CH<sub>30</sub>(-969), US-14(-382), US-44(-641), Arleta, Sparta, Seleкта 201, Seleкта 302 (och-sariq rang) nav namunalari; kertim (rubchik) uzunligi bo'yicha Seleкта 302 (4,0-4,5 mm), CH<sub>7</sub>(-014) (4,0-4,8 mm), KO21(RR-1) (4,0-4,9 mm) nav namunalari, urug'lar qobig'ida dog'lar uchramasligi bo'yicha CH<sub>28</sub>(-268), CH<sub>7</sub>(-014), CH<sub>30</sub>(-969), US-14(-382), US-44(-641), KO21(RR-1), Arleta, Avanta, Sparta, Seleкта 201, Seleкта 302 nav namunalari boshqa nav namunalarga nisbatan belgilar bo'yicha maqsadga muvofiq bo'lib, ulardan belgini yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish mumkin.

Barg shakliga ko'ra, nayzasimon va nayzali tuxumsimon, tuxumsimon va katta tuxumsimon shaklga ega bo'lgan hamda 1mm<sup>2</sup> o'lcham hisobida bargidagi tuklar soni nisbatan ko'p bo'lgan qimmatli ashyolar hisoblanadi va ulardan belgini yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Introduksiya qilingan Janubiy Koreya nav namunalari orasidan pastki dukkaklar joylashuvining 12 sm dan 14 sm gacha bo'lishi, Krasnodar seleksiyasiga mansub nav namunalarning barchasida *pastki dukkaklar joylashuvi* 13 sm dan 15 sm gacha bo'lishi mexanizatsiyaga yaroqliligidan dalolat beradi. *Dukkaklar soni* bo'yicha CH<sub>28</sub>(-268), CH<sub>7</sub>(-014), CH<sub>30</sub>(-969), Seleкта 201, Seleкта 302, *urug' soni* bo'yicha CH<sub>27</sub>(-266), CH<sub>28</sub>(-268), CH<sub>7</sub>(-014), CH<sub>30</sub>(-969), Seleкта 201, Seleкта 302, *urug' og'irligi* bo'yicha CH<sub>28</sub>(-268) va CH<sub>7</sub>(-014), *1000 dona urug' og'irligi* bo'yicha KO21(RR-1), US-14(-382), CH<sub>28</sub>(-268), KO3(-214), K09(339), CH<sub>7</sub>(-014), Arleta, Seleкта 201, Seleкта 302 nav namunalaridan, yuqori *hosildorlikka* erishishda (CH<sub>30</sub>(-969)) va Seleкта-302 nav namunalaridan belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Introduksiya qilingan soya nav namunalarining biokimyoviy tahlil natijalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida introduksiya qilingan soya nav namunalari urug'larining oqsil va moy miqdori tahlili (1-jadvalga

qarang), soya kolleksiya nav namunalari urug'larining oqsil tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar tahlili, introduksiya qilingan soya nav namunalari va duragaylarida klasterli tahlil, introduksiya qilingan soya nav namunalari va duragaylarida elektroforez tahlil natijalari keltirilgan.

### 1-jadval

#### Koreya soya kolleksiya nav namunalari urug'larining biokimyoviy tarkibi

№	Nav namunalar	miqdori, (%)		
		Oqsil	moy	oqsil+moy
		M±m	M±m	
1.	CH <sub>27</sub> (-266)	38,52±0,14	18,61±0,23	57,13±0,35
2.	CH <sub>28</sub> (-268)	40,00±0,30	20,19±0,25	60,19±0,46
3.	CH <sub>3</sub> (-008)	38,16±0,19	18,66±0,15	56,82±0,32
4.	CH <sub>7</sub> (-014)	40,00±0,39	20,76±0,12	60,76±0,38
5.	CH <sub>11</sub> (-018)	39,00±0,18	18,95±0,14	57,95±0,44
6.	CH <sub>30</sub> (-969)	39,17±0,16	19,18±0,18	58,35±0,49
7.	US-25 (-622)	40,00±0,29	19,05±0,19	59,05±0,56
8.	US-14 (-382)	39,53±0,27	19,14±0,21	58,67±0,54
9.	US-44 (-641)	39,04±0,25	20,27±0,17	59,31±0,52
10.	US-80 (-699)	37,59±0,30	18,54±0,13	56,13±0,51
11.	US-82 (-701)	40,00±0,28	18,99±0,15	58,99±0,45
12.	K 09 (339)	38,41±0,27	18,97±0,12	57,38±0,43
13.	KO20	40,00±0,45	18,89±0,41	58,89±0,65
14.	KO3 (-214)	40,00±0,42	19,69±0,35	59,69±0,68
15.	KO21(RR-1)	42,00±0,39	17,66±0,22	59,66±0,58
16.	KO18	41,00±0,35	17,64±0,23	58,64±0,54
17.	Uzbekskaya 2 (st)	38,03±0,15	18,62±0,25	56,65±0,35


Koreya nav namunalari orasidan oqsil miqdorini oshirishda KO21(RR-1) (42 %) va KO18 (41 %) nav namunalaridan, moy miqdorini oshirishda US-44 (-641) (20,27 %) nav namunasidan, shuningdek, bir paytning o'zida ham oqsil, ham moy miqdorini oshirishda CH<sub>28</sub> (-268) va CH<sub>7</sub>(-014) (tegishli ravishda oqsil miqdori 40,0 %, 40,0 % va moy miqdori 20,19 %, 20,76 %) nav namunalaridan genetik-seleksion jarayonlarda foydalanish mumkinligi qayd etildi.

Shuningdek, soya urug'i tarkibidagi oqsil miqdori yuqori miqdorda bo'lganda almashinmaydigan aminokislotalar ham oshib bordi, oqsil miqdori kamayib borganda almashinmaydigan aminokislotalar miqdori ham pasayib borganligi tadqiqotlar tahlil natijalarida aniqlandi.

Klasterli tahlil o'tkazish uchun boshlang'ich ma'lumotlar sifatida o'rganilayotgan 17 ta nav namunalarining qimmatli xo'jalik belgilaridan foydalanildi

(1-rasmga qarang).

Introduksiya qilingan 4- raqamli katta-tuxumsimon barg shaklidagi, soʻngra esa 3- raqamli tuxumsimon barg shaklidagilar va baʼzan 2- raqamli nayzali-tuxumsimon shakldagi nav namunalarning barglarining tuklarini nisbatan koʻpligi aniqlandi.



**1-rasm. Soya nav namunalari xoʻjalik belgilari boʻyicha klasterlarga ajralish diagrammasi**

Janubiy Koreya nav namunalari: 11- US-82 (-701); 12- K 09 (339); 6- CH<sub>30</sub> (-969); 10- US-80 (-699); 7- US-25 (-622); 14- KO3 (-214); 15- KO21(RR-1); 17- Uzbekskaya 2 (andoza nav); 1-CH<sub>27</sub>(-266); 3-CH<sub>3</sub>(-008); 9- US-44 (-641); 2- CH<sub>28</sub>(-268); 13- KO20; 4-CH<sub>7</sub>(-014); 8-US-14 (-382); 5- CH<sub>11</sub> (-018); 16-KO18

Tahlil natijalariga koʻra, introduksiya qilingan nav namunalarning morfologik belgilari boʻyicha 5 ta klasterga ajratildi. Introduksiya qilingan soya nav namunalari va duragaylarida elektroforez tahlillari boʻyicha, oqsil zarrachalarining gamma ( $\gamma$ ) hududlarda joylashganligi, belgilar boʻyicha turli-tumanlik, yaʼni polimorfizm aniqlandi. Bu esa ajratib olingan nav namunalardan belgilarni yaxshilashda boshlangʻich ashyo sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“Soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosidagi duragaylar boʻyicha tadqiqot natijalari va ularning tahlili”** nomli beshinchi bobida Tadqiqotlarimizda soyaning F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub>-F<sub>3</sub> oʻsimliklarida hosildorlik elementlaridan *bir oʻsimlikdagi dukkaklar soni, bir tup oʻsimlikdagi urugʻ ogʻirligi, pastki dukkaklar joylashuvi, 1000 dona urugʻ vazni, bir tup oʻsimlikdagi urugʻ soni* boʻyicha koʻrsatkichlar oʻrganilib, tahlil qilindi.

**F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub>-F<sub>3</sub> duragaylarda bir o‘simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi**

Ota-onalik shakllar va duragaylar	Bir o‘simlikdagi dukkaklar soni, dona					
	M±m	hp	M±m	h <sup>2</sup>	M±m	h <sup>2</sup>
1	2	3	4	5	6	7
CH <sub>27</sub> (-266)	107,8±0,28		108,1±1,8		109,3±1,2	
CH <sub>28</sub> (-268)	114,4±0,88		115,2±1,4		116,7±1,2	
CH <sub>3</sub> (-008)	80,1±1,10		85,1±1,48		86,8±1,13	
CH <sub>7</sub> (-014)	117,3±1,78		118,1±1,2		119,7±1,2	
CH <sub>11</sub> (-018)	88,0±2,16		89,1±1,39		90,4±1,16	
CH <sub>30</sub> (-969)	128,3±0,70		129,1±1,3		130,1±1,4	
US-25(-622)	73,6±1,78		75,5±1,45		76,9±1,12	
US-14(-382)	83,1±2,11		84,2±1,43		85,4±1,15	
US-44 (-641)	105,0±2,79		106,1±1,6		105,5±1,2	
US-80 (-699)	95,6±4,56		96,7±1,55		97,3±1,17	
US-82 (-701)	82,5±2,95		83,5±1,55		84,8±1,14	
K 09 (339)	63,8±3,90		65,5±1,50		66,1±1,03	
KO20	76,6±2,78		77,5±1,48		77,9±1,12	
KO3(-214)	77,0±3,10		77,0±1,79		78,8±1,13	
KO21(RR-1)	63,9±3,40		64,5±1,18		65,2±1,03	
KO18	75,4±4,02		76,9±1,11		77,7±1,11	
CH <sub>27</sub> (-266) x CH <sub>30</sub> (-969)	129,5±0,77	1,1	130,1±1,9	0,36	131,2±1,8	0,51
CH <sub>28</sub> (-268) x CH <sub>30</sub> (-969)	120,0±2,01	-0,2	122,7±1,6	0,44	123,4±1,7	0,57
CH <sub>3</sub> (-008) x CH <sub>30</sub> (-969)	89,4±2,62	-0,6	90,5±1,53	0,42	91,7±1,42	0,61
CH <sub>7</sub> (-014) x CH <sub>30</sub> (-969)	98,9±2,55	-4,3	99,5±1,58	0,79	100,3±1,4	0,77
CH <sub>11</sub> (-018) x CH <sub>30</sub> (-969)	133,3±2,82	1,2	133,6±1,8	0,82	134,5±1,8	0,85
US-25(-622) x CH <sub>30</sub> (-969)	73,9±3,24	-1,0	74,8±1,58	0,63	75,3±1,32	0,66
US-14(-382) x CH <sub>30</sub> (-969)	84,9±3,12	-0,9	85,5±1,77	0,54	86,3±1,39	0,62
US-44 (-641) x CH <sub>30</sub> (-969)	111,2±4,07	-0,5	112,9±1,6	0,56	113,6±1,5	0,69
US-80(-699)x CH <sub>30</sub> (-969)	97,5±4,57	-0,9	98,9±1,82	0,61	100,5±1,4	0,79
US-82 (-701) x CH <sub>30</sub> (-969)	78,9±4,76	-1,2	80,5±1,69	0,70	85,3±1,37	0,60
K 09 (339) x CH <sub>30</sub> (-969)	89,9±3,67	-0,2	91,6±1,85	0,74	92,3±1,44	0,72
KO20 x CH <sub>30</sub> (-969)	114,5±4,46	0,5	116,3±1,8	0,77	117,8±1,6	0,76
KO3 (-214) x CH <sub>30</sub> (-969)	80,6±4,66	-0,9	89,7±1,77	0,65	90,1±1,35	0,64
KO21(RR-1) x CH <sub>30</sub> (-969)	83,4±4,29	-0,4	85,5±1,75	0,50	86,7±1,37	0,68
KO18 x CH <sub>30</sub> (-969)	110,4±4,88	0,3	112,9±1,7	0,58	110,7±1,6	0,52

Tadqiqotimizda introduksiya qilingan Koreya nav namunalari asosida olingan  $F_1$  duragaylarda bir o'simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanishi o'rganildi (2-jadvalga qarang). Ota-onalik shakllarning tahlil natijalariga ko'ra,  $CH_{30}(-969)$  Koreya nav namunasida bir o'simlikdagi dukkaklar soni boshqa shakllarga nisbatan yuqori, ya'ni 128,3 dona natijani ko'rsatib, otalik nav sifatida chatishtirishlarga jalb qilindi.  $CH_7(-014)$ ,  $CH_{28}(-268)$  va  $CH_{27}(-266)$  nav namunalarda ushbu belgi bo'yicha nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichlar namoyon bo'lib, tegishli ravishda 117,3 dona, 114,4 dona va 107,8 donani tashkil etdi. Belgi bo'yicha birmuncha pastroq ko'rsatkichlar KO21 (RR-1) (63,9 dona) va K09 (339) (63,8 dona) nav namunalari qayd etildi. Izlanishlarda 16 ta introduksiya qilingan Koreya nav namunalari chatishtirishlarga jalb qilindi.

$F_1$  o'simliklarning bir o'simlikdagi dukkaklar soni 73,9 ( $F_1US-25(-622) \times CH_{30}(-969)$ ) donadan 133,3 ( $F_1CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969)$ ) donagachani tashkil etdi.  $F_1CH_{28}(-268) \times CH_{30}(-969)$ ,  $F_1KO20 \times CH_{30}(-969)$ ,  $F_1US-44 (-641) \times CH_{30}(-969)$  va  $F_1KO18 \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyalarining bir o'simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanish tahlili shuni ko'rsatdiki, belgi bo'yicha  $F_1CH_{27}(-266) \times CH_{30}(-969)$  ( $hp=1,2$ ) va  $F_1CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969)$  ( $hp=1,1$ ) kombinatsiyalarda ijobiy geterozis,  $F_1KO20 \times CH_{30}(-969)$  va  $F_1KO18 \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyalarida to'liqsiz dominantlik hodisasi qayd etildi.  $F_1CH_7(-014) \times CH_{30}(-969)$  ( $hp=-4,3$ ) va  $F_1US-82 (-701) \times CH_{30}(-969)$  ( $hp=-1,2$ ) kombinatsiyalarda esa salbiy geterozis,  $F_1US-25(-622) \times CH_{30}(-969)$  ( $hp=-1,0$ ) kombinatsiyasida to'liq salbiy dominantlik, qolgan duragay kombinatsiyalarda esa salbiy darajadagi to'liqsiz dominantlik kuzatildi.

$F_1$  duragaylarda bir o'simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanishi bo'yicha  $F_1CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969)$  va  $F_1CH_{27}(-266) \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyalari ustun hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, introduksiya qilingan nav namunalari orasida bir o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha  $CH_{30}(-969)$  nav namunasida eng yuqori natija kuzatilib, 129,1 donani tashkil etdi.  $CH_7(-014)$ ,  $CH_{28}(-268)$  va  $US-44 (-641)$  nav namunalari ham nisbatan ijobiy ko'rsatkichlar kuzatilib, tegishli ravishda 118,1; 115,2 va 106,1 donaga teng bo'lganligi qayd etildi.

Juft duragaylash orqali olingan  $F_2$  o'simliklardan belgi bo'yicha eng yuqori natija 133,6 donani tashkil etib,  $F_2CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyasida namoyon bo'ldi.  $F_2CH_{27}(-266) \times CH_{30}(-969)$  va  $F_2CH_{28}(-268) \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyalarida ham nisbatan yuqori natijalar kuzatilib, 129,4 va 121,8 donaga teng bo'lgan natijalar kuzatildi.

Juft duragaylash orqali olingan  $F_2$  o'simliklardan belgi bo'yicha eng yuqori natija 133,6 donani tashkil etib,  $F_2CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyasida namoyon bo'ldi.  $F_2CH_{27}(-266) \times CH_{30}(-969)$  va  $F_2CH_{28}(-268) \times CH_{30}(-969)$  kombinatsiyalarida ham nisbatan yuqori, 130,1 va 122,7 donaga teng bo'lgan natijalar kuzatildi. O'rganilgan  $F_2$  o'simliklarda bir o'simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanish koeffitsiyenti faqatgina  $F_2(CH_{27}(-266) \times CH_{30}(-969))$  kombinatsiyasida kuzatilib,  $h^2=0,36$  ga teng bo'ldi. Qolgan kombinatsiyalarda o'rta va kuchli darajadagi irsiylanish qayd etildi. Ular orasida nisbatan kuchli darajadashhgi irsiylanish  $h^2=0,82$  ga teng bo'lib,  $F_2(CH_{11}(-018) \times CH_{30}(-969))$  kombinatsiyasida aniqlandi.

Janubiy Koreyadan introduksiya qilingan nav namunalarda bir o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha ko'rsatkichlar 76,9 (US-25(-622)) donadan 130,1 CH<sub>30</sub>(-969)) donagacha bo'lganligi qayd etildi. Demak, introduksiya qilingan nav namunalar orasida belgi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich CH<sub>30</sub>(-969) bo'lganligi namoyon bo'ldi. Ular orasida nisbatan yuqori natijalar CH<sub>7</sub>(-14), CH<sub>28</sub>(-268) va US-44 (-641) nav namunalarida kuzatilib, tegishli ravishda 119,7 dona, 116,7 dona va 105,5 donani tashkil etdi.

F<sub>3</sub> o'simliklarda esa, bir o'simlikdagi dukkaklar soni 75,3 (F<sub>3</sub>US-25(-622) x CH<sub>30</sub>(-969)) donadan 134,5 (F<sub>3</sub>CH<sub>11</sub>(-018) x CH<sub>30</sub>(-969)) donagacha bo'lganligi namoyon bo'ldi. Belgi bo'yicha nisbatan yuqori natijalar F<sub>3</sub>CH<sub>28</sub>(-268) x CH<sub>30</sub>(-969), F<sub>3</sub>KO20 x CH<sub>30</sub>(-969), F<sub>3</sub>US-44 (-641) x CH<sub>30</sub>(-969) va F<sub>3</sub>KO18 x CH<sub>30</sub>(-969) kombinatsiyalarida kuzatildi va tegishli ravishda 123,4; 117,8; 113,6 va 113,7 donani tashkil etdi.

Ta'kidlab o'tish joizki, bir o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha CH<sub>30</sub>(-969) nav namunasi hamda F<sub>3</sub>CH<sub>11</sub>(-018) x CH<sub>30</sub>(-969), F<sub>3</sub>CH<sub>27</sub>(-266) x CH<sub>30</sub>(-969) va F<sub>3</sub>CH<sub>28</sub>(-268) x CH<sub>30</sub>(-969) duragay kombinatsiyalari belgi bo'yicha ustun ekanligi qayd etildi. Bunda, yillar davomidagi belgi bo'yicha ko'rsatkichlar ortganligini ko'rish mumkin.

Ajratib olingan oilalarning *bir tup o'simlikdagi urug' soni* shakllanishi 125,1 dona (O-9) dan 247,5 dona (O-5) gacha bo'lib, qolgan oilalarda ushbu belgi bo'yicha ko'rsatkich asosan 133,4 dona (O-7) dan 198,2 dona (O-12) gacha bo'lganligi qayd etildi. Andoza Uzbekska 2 navida bir tup o'simlikdagi urug' soni 152,3 donani tashkil etib, deyarli barcha oilalarda belgi bo'yicha andoza navdan ustunlik kuzatildi. Faqatgina O-9 (125,1 dona), O-7 (133,4 dona), O-8 (149,3 dona) oilalarida andoza navdan birmuncha pastroq natijalar namoyon bo'ldi.

Introduksiya qilingan nav namunalarning bir o'simlikdagi dukkaklar sonini yaxshilashda O-5, O-1 va O-2 oilalari, bir tup o'simlikdagi urug' og'irligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich qayd etilgan O-15, O-8 va O-5 oilalari, pastki dukkaklar joylashuvi bo'yicha O-6 oilasidan, 1000 dona urug' og'irligini yaxshilashda O-6 va O-11 oilalaridan, bir tup o'simlikdagi urug' soni O-5, O-12 va O-1 oilalaridan belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soya oilalarining ayrim qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog'liqliklari tahlil qilindi (3-jadvalga qarang).

Tadqiqotlarda belgilarning korrelyativ bog'liqligi o'rganildi. Oilalarda oqsil miqdori va hosildorlik, oqsil miqdori va moy miqdori orasidagi o'zaro korrelyativ bog'liqliklar shuni ko'rsatdiki, O-3 va O-14 oilalaridan bir paytning o'zida har uchala belgini yaxshilashda, shuningdek, oqsil va hosildorlikni oshirishda kuchli darajada korrelyativ bog'liqliklarni tashkil etgan O-10, O-11, O-9, O-3 va O-7 oilalaridan, o'rta ijobiy darajadagi bog'liqliklarga ega bo'lgan O-14, O-2, O-4, O-5 va O-6 oilalaridan hamda kuchsiz ijobiy bog'liqlikni tashkil etgan O-1 oilasidan belgilarni yaxshilashda seleksion ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Soyada oqsil va moy miqdorini yaxshilashda kuchli ijobiy darajadagi bog'liqlikni tashkil etgan O-12 oilasidan, o'rta darajadagi ijobiy bog'liqliklarga ega bo'lgan O-14 va O-13

hamda kuchsiz darajada bog‘liqlikka ega bo‘lgan O-8 oilalaridan seleksion ashyolar sifatida foydalanish mumkin.

### 3-jadval

#### Soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida olingan oilalarda ayrim qimmatli xo‘jalik belgilar orasidagi o‘zaro korrelyativ bog‘liqlik

Oilalar	Oqsil va hosildorlik orasidagi o‘zaro korrelyativ bog‘liqlik		Oqsil va moy orasidagi o‘zaro korrelyativ bog‘liqlik	
	r=	t <sub>r</sub>	r=	t <sub>r</sub>
1	2	3	4	5
O-1	0,17	7,24	-0,49	1,91
O-2	0,41	1,59	-0,23	1,67
O-3	0,83	1,77	0,28	1,02
O-4	0,40	1,02	-0,84	3,28
O-5	0,40	2,72	-0,13	2,79
O-6	0,36	2,28	-0,32	2,13
O-7	0,81	2,32	-0,57	1,14
O-8	-0,34	4,83	-0,28	2,25
O-9	0,88	2,56	-0,20	2,95
O-10	0,97	2,38	-0,36	4,43
O-11	0,97	2,98	-0,61	3,11
O-12	-0,22	2,88	0,72	2,19
O-13	-0,30	2,96	0,49	2,06
O-14	0,65	2,53	0,65	1,09
O-15	-0,40	2,34	-0,70	2,03
Uzbekskaya 2 (st)	0,97	7,14	0,40	1,45

Dissertatsiyaning “**Soyaning yaratilgan tizmalari va TDAU-5 navining qimmatli xo‘jalik belgilar bo‘yicha ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligi**” nomli oltinchi bobida soyaning yaratilgan tizmalarning qimmatli xo‘jalik belgilar bo‘yicha ko‘rsatkichlari, yaratilgan TDAU-5 navining iqtisodiy samaradorligi, yangi yaratilgan TDAU-5 navining qimmatli xo‘jalik belgilar bo‘yicha ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan.

4-jadvalga ko‘ra, T-2 tizmasining bo‘yi 118,9 sm, T-4 tizmasida 115,8 sm ga teng bo‘lsa, T-5 tizmasida 133,5 sm ni tashkil etdi.

Bizning tajribalarimizda belgi bo‘yicha andoza Uzbekskaya 2 da natija 125,0 sm ga teng bo‘ldi.

Soya navlari seleksiyasida vegetatsiya davri muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, yaratilgan tizmalarning vegetatsiya davri ko'rsatkichi o'rganilganda, T-5 tizmasida andoza nav darajasida (120 kun) bo'lib, 120 kun ni tashkil etdi va boshqa tizmalarga nisbatan kechroq pishib, o'rtapisharlikni namoyon qildi. Qolgan tizmalarda bu ko'rsatkich 112 (T-2) kun, 115 (T-5) kunga teng bo'ldi.

